

FARG'ONA VODIYSI TABIATI VA XO'JALIGINING AGROTURISTIK IMKONIYATLARI

Abdulxamidov Abdusattorjon Abdumalik o'g'li

*Farg'ona davlat universiteti, geografiya
mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: *Turizm iqtisodiyotning ko'p tarmoqlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Turizm o'zida iqtisodiyotning murakkab va majmuaviy sohalarini mujassam etganki, bu butun jahon xo'jaligiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Alohida mamlakatlar xo'jaligiga ham, hududlarga ham u birday tegishli hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarda xalqaro turizm valyuta tushumlarining yagona manbai hisoblanadi. Farg'ona vodiysining agrolandshaftlari turizmni rivojlantirishga muhim asos bo'ladi. Hozirgi kunda vodiydagi mavjud imkoniyatlardan agroturizm maqsadlarida foydalanishni yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.*

Abstract: *Tourism makes it possible to develop many sectors of the economy. Tourism is a complex and integrated sector of the economy, which has a significant impact on the entire world economy. It applies equally to the economy of individual countries and regions. In some countries, international tourism is the only source of foreign exchange earnings. The agrolandscapes of the Fergana Valley are an important basis for the development of tourism. Currently, one of the urgent issues is to use the available opportunities in the valley for the purposes of agrotourism.*

Kalit so'zlar: *Qishloq turizmi, agrolandshaft, agroturistik imkoniyat.*

Key words: *Rural tourism, agrolandscape, agrotourism opportunity.*

Farg'ona agroturistik rayonining agroturizm salohiyati va imkoniyatlarini baholashda hudud tabiati komponentlari – relyefi, iqlimi, suvlari, tuproq va o'simlik qoplami, hayvonot dunyosi va agrolandshaftlarining agroturistik imkoniyatlari tahlili asosiy o'rinni egallaydi.

Farg'ona rayoni O'zbekistonning eng sharqida, Tyanshan va Oloy tog' tizimlari orasidagi tektonik botiq Farg'ona vodiysida (Farg'ona vodiysining O'zbekistonga tegishli qismi) joylashgan. Rayonning atrofi tog'lar bilan o'ralgan. Rayonni janubdan Turkiston va Oloy, sharqdan Farg'ona va Oto'ynoq, shimoldan Chatqol, shimoli-g'arbdan esa Qurama va Qoramozor tog' tizmalari, g'arbdan Mug'ultog' o'rab turadi. Faqat g'arb tomondan rayon torgina (8-9 km) "Farg'ona" yoki "Xo'jand" darvozasi orqali Dalvarzin va Mirzacho'l tekisliklari bilan tutashib ketadi. Ma'muriy jihatdan Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlarini o'z ichiga oladi.

Farg'ona agroturistik rayoni tektonik botiqdan iborat bo'lib, asosan prolyuvial-allyuvial jinslar bilan to'lgan. Rayonning atrofini esa yosh (antropogen) burmalardan iborat bo'lgan tog'li mintaqa o'rab olgan. Bu yosh struktura "adir" yoki "adir burmasi" deb yuritiladi. Farg'ona rayonini o'rab turgan tog'larda quruqlikning paydo bo'lish jarayoni

paleozoy erasidan boshlansa, adirlar qismida mezozoy erasidan boshlangan. Kaynazoy erasida esa vodiyning tekislik qismi quruqlikka aylangan. Rayon yer yuzasining tuzilishi nihoyatda xilma-xil, uni bir necha gipsometrik pog'onaga (zonaga) bo'lish mumkin. Markaziy qismi tekislik bo'lib, undan Sirdaryo oqib o'tadi. Rayonning markaziy qismini Sirdaryoning qayirlari, I, II va III terrasalari ishg'ol etgan bo'lib, baland terrasalar yuzasidagi katta maydonlarni qum tepalari egallagan. Ularning nisbiy balandligi 5-15 m dan oshmaydi. Rayonda eng katta qum massivi Yozyovon va Qoraqalpoq cho'li hisoblanadi. Hozirgi kunda qum tepalarning ko'p qismi tekislanib, ekinzorlarga aylantirilgan. Farg'ona rayonini o'rab olgan tog' tizmalaridan bir nechta yirik daryolar boshlanib, ko'pchiligi Sirdaryoga yetmasdan qurib qoladi. Daryolarning quyi qismlarida katta-katta yoyilmalar hosil bo'lgan. Yoyilmalar bir-birlari bilan tutashib, allyuvial-prolyuvial tekisliklarni tashkil etadi.

Farg'ona rayonining markaziy qismini halqa shaklida (Polvontosh, Nayman, Andijon, Chimyon, Chust, Pop, Namangan kabi) adirlar o'rab olgan. Adirlar birbiriga parallel yo'nalgan to'lqinsimon past, o'rtacha va baland adirlar zonasini hosil qiladi. Har bir adir oralig'ida botiqlar joylashgan. Botiqlarning yer yuzasi, asosan, tekis yoki bir oz nishablangan yassi tekisliklardan iborat. Adir orqasi botiqlaridan keyingi mintaqada past tog'lar boshlanadi. Past tog'lar ham ko'p holatlarda asosiy tizmalarga parallel holda cho'zilgan. Yon tizmalarning mutlaq balandligi 1500-2000 m, ular asosan paleozoy, mezozoy eralari, paleogen va neogen davrlari yotqiziqalaridan iborat.

Farg'ona agroturistik rayonining o'ziga xos iqlim xususiyatlari uning geografik o'rniga bog'liq. Rayonning yoz fasli quruq va davomli issiq, qishi mo'tadil, havo harorati ancha barqaror. Qishda tog'lardan tushib keladigan sovuq havo Farg'ona botig'ining markazida to'planib qoladi va yanvarning o'rtacha ko'p yillik haroratining pastroq bo'lishiga (-3oC) olib keladi. Ba'zan qishda shimoldan va shimoli-sharqdan esayotgan sovuq havo tog'larni oshib o'tib, vodiya havo haroratini juda pasaytirib yuboradi va yanvarda mutlaq sovuq harorat - 30 oC, -31oC darajagacha pasayadi. Rayonda bahor qisqa keladi, ob-havo tez-tez o'zgarib turadi, yillik yog'in miqdorining 30 foizdan ortig'i shu faslda yog'adi. Kechki bahorgi sovuqlar o'rta hisobda birinchi aprelgacha davom etadi. Bahorda, ayniqsa, uning oxirida kuchli shamollar esib, jala va do'l yog'ishi kuzatiladi.

Rayonda iyulning ko'p yillik o'rtacha harorati + 260, +270, eng yuqori harorat +400, +420. O'simliklarning vegetatsiya davri 235-240 kun, harorat +100 dan yuqori bo'lgan davrdagi o'rtacha haroratlar yig'indisi 4400-48000 ni tashkil qiladi. Kuzda esa havo harorati sezilarli darajada pasayadi, bulutli kunlar tez-tez takrorlanib, yog'in-sochin ko'payadi. Kuzning ikkinchi yarmidan havo harorati keskin pasayadi va kuzgi sovuq boshlanadi.

Rayonda o'rtacha yillik yog'in miqdori 100-230 mm bo'lib, g'arbidan sharqqa tomon ortib boradi. Yillik yog'in miqdorining 10-16 foizi yoz oyiga, 36 foizi qish oyiga, qolgan qismi bahor va kuz oylariga to'g'ri keladi. Qo'qon shamoli oktabr oyidan mart oyigacha tez-tez takrorlanib turadi. Bahor va kuz oylarida Mirzacho'ldan Farg'ona vodiysiga esgan Qo'qon shamolining tezligi 25 m/sek ga yetadi. Qishda vodiya havoning sovib ketishi natijasida

antitsiklon tarkib topadi. G'arbda, Mirzacho'lda siklon harakati davom etib turganda vodiya g'arbiga qarab 15-20 m/sek tezlikda Bekobod shamoli esadi.

Rayonda eng katta va sersuv daryolar Norin, Qoradaryo va Sirdaryodir. Norin daryosi Markaziy Tyanshan tog'laridan boshlanuvchi Kichik va Katta Norinning qo'shilishidan hosil bo'ladi. U qor va muzlarning erishidan to'yinadi. Uchqo'rg'on yonida yillik o'rtacha suv sarfi sekundiga 427 m³ ni tashkil etadi. Qoradaryo Farg'ona va Oloy tog'laridan boshlanuvchi Tor, Qorag'ulja daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi, qor va muzliklardan to'yinadi. Qoradaryoning Baliqchi qishlog'i yaqinida yillik o'rtacha suv sarfi 123 m³/sek ga teng. Sirdaryoning yillik o'rtacha oqimi Qizilqishloq yaqinida 568 m³/sek ni tashkil etadi. V.L.Shuls (1959) ma'lumotlariga ko'ra, Sirdaryoning yillik oqimining 45,2 foizi mart-iyun oylarga, 35,5 foizi iyul-sentabr oylarga, 19,3 foizi oktabr-fevral oylariga to'g'ri keladi. Farg'ona vodiysini o'rab turgan tog'lardan oqib tushadigan juda ko'p soy va kichik daryolar suvi sug'orishga sarflanishi tufayli Sirdaryoga yetib kelmaydi. Vodiya suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun qator suv omborlari (Qayroqqum, Uchqo'rg'on, Andijon, Bozorqo'rg'on, Karkidon va boshqalar), kanallar (Katta Farg'ona, Katta Andijon, Shimoliy Farg'ona, Katta Namangan, Janubiy Farg'ona, Qo'shtepa nomidagi kanal va boshqalar) qurilgan. Ushbu suv omborlari va kanallar ekinlarni suv bilan ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Kanallar o'tgan hududlarning katta maydonlarini paxta, g'alla, sabzavot, poliz ekinlari, bog' va uzumzorlar egallagan. Agrolandshaftlarning turli-tumanligi agroturistik imkoniyatlarni oshiradi.

Farg'ona agroturistik rayoni juda katta yer osti suvining zahiralarga ega, ular turli tog' jinslari orasida qatlam-qatlam bo'lib joylashgan. Yer osti suvlarining dinamik zahirasi katta, sekundiga 257 m³ ni tashkil etadi. Rayon O'rta Osiyodagi eng qadimgi obikor dehqonchilik o'lkasi bo'lib, tuprog'i, ayniqsa, uning tekislik qismida voha madaniy tuprog'iga aylangan. Tabiiy holdagi tuproqlarni Markaziy Farg'onadagi Qoraqalpoq cho'lida, adir mintaqasida va tog'larda uchratish mumkin. Litologik-geomorfologik va iqlim sharoitlariga bog'liq holda rayon hududida hozirgi vaqtgacha tuproqlarning quyidagi genetik guruhlarini shakllangan: balandlik mintaqalar tizimida – jigarrang, to'q tusli, tipik va och tusli bo'z hamda bo'z o'tloqi tuproqlar; cho'l zonasida – kolmatajlangan, o'tloqi-taqir tuproqlar va sho'rxoklar. Sug'oriladigan tuproqlar orasida tipik va och tusli bo'z tuproqlar, bo'z o'tloqi, kolmatajlangan, o'tloqi taqir va o'tloqi tuproqlari ajratilgan (O'zbekiston Respublikasi tuproq qoplamlari atlas, 2010).

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar tog' oldi, nishabli tekisliklar va konus yoyilmalarining past-baland qir-adirliklari tizma qatorlarida (Oloy va Farg'ona tog' tizmalarida, Chust-Pop adirlarida) tarqalgan. Tuproq hosil qiluvchi jinslar delyuvial-prolyuvial va allyuvial-prolyuvial lyoslashgan, ba'zan skeletli-talqon tuproqli yotqiziqlardan iborat. Eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar tog' oldi tekisliklarining tekis uchastkalari va konus yoyilmalarini egallagan. Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar tog' oldi, nishabli tekisliklarda va daryolarning konus yoyilmalarida (Quva-Andijon adirliklari, Kosonsoy, Chortoqsoy, Chodaksoy, Norin va boshqa daryolarning konus yoyilmalarida) uchraydi.

Sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlar qadimdan o'zlashtirilgan, ular adir orti cho'kmalari va daryolarning ikkinchi qayir usti terrasalarida (Sirdaryo va Qoradaryoning quyi terrasalarida) uchraydi. Sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlar tog' oldi tekisliklari va daryolarning konus yoyilmalarida uchraydi. Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar rayon sug'orma dehqonchiligida ko'p foydalaniladigan tuproqlar hisoblanadi. Tog' oldi tekisliklari va konus yoyilmalari, adir orti cho'kmalarida o'tloqi saz tuproqlar, Markaziy Farg'ona tekisligida o'tloqi saz-allyuvial, daryolarning quyi terrasalarida o'tloqi-allyuvial tuproqlar shakllangan.

Farg'ona vodiysi hududini yer yuzasi xo'jalik jihatdan foydalanish imkoniyatlariga qarab birnecha mintaqalarga bo'lish mumkin.

1. Tekislik mintaqasi. Vodiyning markazidan adir mintaqasigacha bo'lgan hududni ishgor qiladi. Birinchisi-vodiyning markaziy botiq qismi. Ikkinchisi-daryo hamda soylarning keng yoyilmalaridan iborat bo'lib, ular eng yaxshi o'zlashtirilgan

2. Adir mintaqasi (600-1200m balandlikda)-Rayonning har jihatdan o'zlashtirilgan mintaqasi.

3. Tog'li mintaqasi. 1100-1200 metrdan boshlab balandlashib, tog' oldi va tog'li rayonlarga o'tib boradi.

4. Baland tog'li mintaqasi. Ma'muriy jihatdan Tojikiston va Qirg'iziston respublikalariga tegishli bo'lib, ulardan yaylov sifatida foydalanadi.

Vodiy hududining katta qismi tekislik, adirlik, tog' oldi hududlariga to'g'ri keladi. Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismini 77 % tekisliklardan iborat, 23 %ini adir va tog'liklar tashkil etadi. Tekisliklarning dengiz sathidan balandligi Beshariqda 404 m, Qo'qonda 408 m, Quva 466 m, Andijon 503 m ni tashkil qiladi. Bu yerlar vodiyning asosiy dehqonchilik rayonidir. Adir va tog' oldi, tog'lik qismi asosan uncha baland bo'lmagan yuqori uchlamchi va quyi to'rtlamchi qum, loy, mergel usti lyoss yotqiziqlar bilan qoplangandir. Adirlardan bahorgi, erta yozgi yaylov sifatida ham foydalanish mumkin. Hozir adirlarning 30 % o'zlashtirilgan bo'lib, asosan Andijon, Quva va Namangan adirlariga to'g'ri keladi. Tog'li hududlar faqat Namangan viloyatining g'arbida bo'lib, u yerdan Qamchi davoni o'tadi. Shuningdek, Farg'ona viloyatining So'x tumani va Farg'ona tumanining Shohimardon qishlog'i ham tog'li yerlardan iborat.

Vodiy Respublikada qishloq xo'jalik nuqtai nazaridan yaxshi o'zlashtirilgan o'lka hisoblanadi. Lekin yana 150000 gektarga yaqin yangi o'zlashtiriladigan yerlar ham bor. Vegetatsiya davri uzun 200-230 kun, shu davrdagi umumiy harorat 4500-4600 S ga etadi. Bunday sharoit issiqsevar o'simliklar o'sishi uchun qulay va bir yerdan 2-3 marta hosil olish imkoniyatiga ega. Maydoni ancha kichik, lekin aholi soni ko'p va nihoyatda zich joylashgan ushbu hududning iqtisodiy rayon shaklida ajratilishi, eng avvalo uning geografik o'rni va demografik salohiyati bilan tavsiflanadi. Bu yerda rayon hosil qiluvchi ishlab chiqarish tarmoqlari bo'lib asosan paxta va pilla yetishtirish, bog'dorchilik, yengil va oziqovqat sanoatlari xizmat qiladi. Shunga ko'ra Farg'ona vodiysi iqtisodiyotining rivojlangan tarmog'i agrosanoat majmui hisoblanadi.

Farg'ona vodiysi O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 17,5 foizini, sanoatini 23,9%, qishloq xo'jalik mahsulotining 26,1 foizini ta'minlaydi; pullik xizmatlarda uning ulushi 24,6%, chakana savdoda 22,8%, tashqi savdo aylanmasida – 16,0% (2013 y.). Rayon mamlakatimiz hududiy mehnat taqsimotida qishloq xo'jaligi, xususan paxta va pilla, meva va uzum, sanoatida esa avtomobilsozlik, to'qimachilik, kimyo va neft kimyosiga ixtisoslashgan. Geografik o'rni, siyosiy geografik vaziyati transchegaraviy bo'lganligi sababli bu yerda ichki transport infratuzilmasi ancha rivojlangan. Mintaqaning aloqa yo'llari Tojikiston Respublikasining Sug'd, Qirg'iziston Respublikasining Botken, Jalolobod va O'sh viloyatlari bilan bog'langan.

Umuman olganda, Farg'ona vodiysi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zaif tomonlari uning ijobiy-kuchli tomonlariga nisbatan ustunlik qiladi; tabiiy resurslarga boy emasligi, anklav iqtisodiy va siyosiy geografik o'rni (u faqat tor masofada O'zbekistonning – Toshkent viloyati bilan chegaradosh) uning zaif tomonlari hisoblanadi. Ijobiy (kuchli) tomoni esa asosan mehnat resurslarining ko'pligidadir. Ichki tarkibda hududi bo'yicha eng kattasi Namangan viloyati, iqtisodiy salohiyat Andijonda, demografik salohiyat Farg'ona viloyatida yuqori. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 1011 ming gektarni tashkil etadi. Shundan haydaladigan yer 702,4 ming gektar, ko'p yillik daraxtlar 108,8 ming gektar, yaylovlar 242,6 ming ga. Bo'z yerlar 3,6 ming ga. Aholi xovli joy va tomorqalari 153,7 ming ga, bog' va uzumzorlar 3,3 ming ga ni tashkil qiladi. Asosiy ekin paxta bo'lib, har yili 1,1- 1,2 ming tonna paxta etkaziladi. Hosildorlik 28-30 s tashkil qiladi. Keyingi vaqtda don yetishtirishga katta eotibor berilmoqda. 2009 yilda 426,1 ming tonna don olindi, 162,8 ming tonna kartoshka etkazildi, 806,7 ming tonna sabzavot olindi. 250,7 ming tonna uzum yetishtirildi. Farg'ona vodiysida sut va sutgo'sht chorvachiligi rivojlangan. Farg'ona vodiysi mamlakatimizda asosiy paxtachilik rayoni hisoblanadi. Vodiya paxtadan tashqari, bo'g'doy, makkajo'xori, jo'xori, sholi, mevalardan – olma, behi, gilos, shaftoli, nok, bodom, yong'oq, anjir, anor, uzum, sabzavotlardan – pomidor, kartoshka, sabzi, poliz mahsulotlaridan – qovun, tarvuz, bodring kabi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladi. Chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, parrandachilik, pillachilik, asalarichilik kabi sohalari rivojlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdug'aniyevich, A. H., & Abdumalik o'g'li, A. A. (2022). HUDUDNING TABIIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI AHOLI JOYLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 576-581.

2. Абдувалиев, А. Х., & Абдулхамидов, А. А. Ў. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁ АҲОЛИСИНИНГ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТИГА ТАБИИЙ-ГЕОГРАФИК ОМИЛЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ. Academic research in educational sciences, 3(10), 435-440.

3. Gayratovich, M. E., Abdusattor, A., & Nematulloh, F. (2022). THE ROLE OF HISTORICAL AND CULTURAL MONUMENTS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE FERGANA VALLEY. *Scientific Impulse*, 1(4), 81-86.
4. Gayratovich, M. E., Abdusattor, A., & Begoyim, A. (2022). ORGANIZATION OF ECOTOURISTIC ROUTES IN FERGANA REGION. *Scientific Impulse*, 1(4), 87-92.
5. Gayratovich, M. E., Abdusattor, A., & Abdulxamidovich, M. J. (2022). THE IMPORTANCE OF RELIGIOUS TOURISM IN PROTECTING THE NATURE OF FERGANA VALLEY. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(13), 145-149.
6. Abdug'aniyevich, A. X. (2023). FARG 'ONA VILOYATI NORASMIY MEHNAT BOZORLARI SHAKLLANISHINING GEOGRAFIK OMILLARI. *World of Science*, 6(4), 574-580.
7. Abdug'aniyevich, A. X. (2023). FARG 'ONA VILOYATIDA NORASMIY MEHNAT BOZORLARI SHAKLLANISHINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *World of Science*, 6(4), 581-587.
8. Abdumalik o'g'li, A. A. (2023). ECOLOGICAL ASPECTS OF PRIVATE PROPERTY NAMES TO TOPONIMIC OBJECTS. *World of Science*, 6(4), 570-573.
9. Абдувалиев, А. Х., & Абдулхамидов, А. А. Ў. (2021). ФАРФОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИ ЖОЙЛАШУВИНИНГ ИЖТИМОИЙИҚТИСОДИЙ ОМИЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 1127-1136.
10. Abdug'Aniyev, O. I., Turdiboeva, S. X. Q., & Abdullayeva, H. R. Q. (2022). BARQAROR TARAQQIYOT VA ETNOEKOLOGIYA. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 94-101.
11. Hamidaxon, A. (2020). Prospects of Development of Agrotourism in Fergana Region. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH*, 3(1), 345-347.
12. Gayratovich, M. E., Ablazbek, M., & Nematulloh, F. (2022). ISSUES OF TOURISM DEVELOPMENT IN MOUNTAIN REGION. *Scientific Impulse*, 1(4), 71-75.